

FURQAT G'AZALLARIDA JONLANTIRISHLARNING IFODALANISHI

ВЫРАЖЕНИЕ ПОЭТИЧЕСКАЯ ОЛИЦЕТВОРЕНИЯ В ГАЗЕЛЯХ ФУРКАТА

THE EXPRESSION OF ARTISTIC REVITALIZATIONS IN FURQAT'S GHAZALS

Iskandarova Sharifa Madaliyevna¹, Qo'ldasheva Dilnavoz Xatamovna²¹Iskandarova Sharifa Madaliyevna

– Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrası professori, filologiya fanlari doktori

²Qo'ldasheva Dilnavoz Xatamovna

– Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrası tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Furqat ijodida badiiy-uslubiy vositalarning qo'llanilishi haqida fikr yuritiladi. Jumladan, mumtoz adabiyotda eng faol uslubiy vositalardan biri bo'lgan jonlantirishlarning ifodalanishi shoir g'azallari misolida ochib berilgan. Jonlantirishlarning badiiy tasvirning obrazli va keng qamrovda tushunilishini ta'minlash xususiyati Furqat g'azallarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Maqolada shoir g'azallarida qo'llanilgan jonlantirishlar, inson yuzi a'zolari bilan bog'liq jonlantirishlar, zoonimlar mavzu guruhlariga bo'lib tahlil qilingan. Shoirming o'z g'azallarida tabiat, yor mavzulari tavsifida go'zal timsollar va mukammal badiiy tasvir vositalaridan o'rinli foydalanganligi ochib beriladi.

Аннотация

В данной статье рассматривается использование художественно-стилистических средств в творчестве Фурката. В частности, раскрывается на примерах газелей поэта выразительность олицетворения, которая является одним из наиболее активных стилистических средств в классической литературе. В газелях Фурката отчетливо проявляется особенность олицетворений, обеспечивающих образное и комплексное понимание художественного образа. В статье по тематическим группам анализируются олицетворения, используемые в газелях поэта, олицетворения, связанные с органами лица человека, зоонимы. Раскрываются умелое использование поэтом в своих газелях красивых символов и совершенных художественных средств для описания тем природы, любимой.

Abstract

This article analyzes the use of artistic and stylistic tools in Furqat's work. In particular, the expression of revitalizations, one of the most active stylistic tools in classical literature, is explained with the help of poet's ghazals. In Furkat's gazelles, the peculiarity of personifications is clearly manifested, providing a figurative and complex understanding of the artistic image. The article analyzes by thematic groups the personifications used in the poet's gazelles, the personification associated with the organs of the human face, zoonyms. The skillful use by the poet in his gazelles of beautiful symbols and perfect artistic means to describe the themes of nature, beloved.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, badiiy matn, badiiy-uslubiy vosita, jonlantirish, apostrofa, intoq, tashxis, fitonim, zoonim, semantik xususiyat.

Ключевые слова: лингвопоэтика, художественный текст, художественно-стилистические средства, олицетворение, апострофа, ревитализация, фитоним, зооним, семантическая особенность.

Key words: linguopoetics, artistic text, artistic and stylistic tool, revitalization, apostrophe, some Uzbek artistic tools such as "intokh" and "tashkhis", phytonym, zoonym, semantic features.

KIRISH

Bugungi kunda mumtoz matnlarning adabiy-badiiy hamda lingvistik xususiyatlarini tadqiq etish yuzasidan keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Ajdodlarimiz merosini puxta o'rganish, mumtoz badiiy manbalar tilining lisoniy-badiiy imkoniyatlari hamda milliy-madaniy jihatlarini tahlil qilish va bugungi avlodga yetkazish ham asosiy vazifalardan biriga aylandi. Badiiy matnda tasvir obyektiga o'quvchini yaqinlashtirish, voqelikning anglanishiga ko'maklashish, umuman, ifoda imkoniyatini oshirish o'ta muhimdir. Bunda muallif badiiy nutqda jonlantirish san'atidan unumli foydalanadi. Jonlantirishlarning badiiy tasvirning obrazli va keng qamrovda tushunilishini ta'minlash xususiyati Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat g'azallarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jonlantirish og'zaki nutqda va badiiy matnlarda ham qadimdan qo'llanib kelinadi, unda insonga xos qobiliyat va xususiyatlar hayvonlar, jonsiz narsalar va tabiat hodisalariga mujassamlashtiriladi. Aniqroq qilib aytganda, unga insonlarga xos so'zlash, fikrlash, his qilish xususiyatlari singdiriladi. [1,38]. M.Qurbonova va M.Yo'ldoshev "kishilarning harakatlari, his-

tuyg'ulari, so'zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko'chirilishi" [2,68]ga jonlantirish deyilishini qayd etganlar.

Jonlantirishning barcha ko'rinishlari "tasvir obyektini bo'rttirib, qabartirib, yorqin va ravshan qilib tasvirlashga imkon beradi" [3,212]. T.Boboyev va Z.Boboyevalar tomonidan jonlantirish ham metaforaning bir ko'rinishi ekanligi, "odamlarga xos bo'lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko'chirish orqali paydo bo'ladigan tasvir usuli" [4,11] ekanligi bayon etilgan.

Mazkur maqolada tasniflash, tavsiflash, zidlash, qiyoslash, komponent va kontekstual tahlil, semantik-stilistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAM

Jonlantirishlarning badiiy tasvirning obrazli va keng qamrovda tushunilishini ta'minlash xususiyati Furqat g'azallarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, shoirning

Agar kelsa ketar holim ko'rubon

Ajal jonimni olmasdan uyolib. (B.20)

baytida mavhum tushunchani ifodalovchi ajal teonimi qo'llanilib, u xuddi insonlardek harakat qiladi, ya'ni lirik qahramonning holini ko'rib, uyalganidan qaytib ketadi. Bu orqali shoir o'z holining qanchalar achinarli ekanligini ta'sirchan ifodalashga erishadi.

Shoir g'azallarida qo'llanilgan jonlantirishlarni bir necha mavzu guruhlariga bo'lib tasniflash mumkin. Masalan:

Inson yuzi a'zolari – ko'z, qosh, lab, xol, kiprik kabilar bilan bog'liq jonlantirishlar. **Bunday tashxis ifodalari Furqat g'azallarida ko'p uchraydi va ularning aksariyati shoir ijodiga xos original jonlantirishlardir. Shoirning "Muhabbat yo'lida" [6] kitobiga kiritilgan quyidagi baytlarda aynan yuz a'zolari jonlantiriladi: qoshlar majlis qiladi, ko'zlar ularga qo'shilib, xunxorlikka shay turadi, yana ko'zlar sayr qilishga chiqadi yoki qalb uyini talon-taroj qiladi, umuman, xuddi joni borday harakatlanadi.**

O'ldururg'a bir-biri birla qoshing kengash etib,

Bosh qo'shub anga iki nargis degan xunxor ham [5,40].

Berilgan parchada ishtirok etgan *kengash etib* birikmasi aslida *qosh* so'zi bilan semantik munosabatga kirishmasa-da, shoirning badiiy maqsadini ta'minlashga xizmat qilgan. Bunda shoir yorning qoshlarini oshiqqa qasd qilish uchun *kengash* tuzib o'tirganlikka, ikki ko'zi esa ularga qo'shilib, xunxorlik qilayotganini tasvirlab, jonlantirishning go'zal namunasini yaratadi.

Ko'zlarim mardumlari chiqti tamosho qilg'oli,

Har tarafga to'lg'onib sarvi xiromonim kelur. (B.33)

Baytdagi *tamosho qilg'oli* birikmasiga xos jonlilik belgisi *ko'zlarim mardumlari* birikmasiga ko'chirilgan. Shoir o'ynoqi yorning dunyoni to'ldirib kelishlari tasvirini chizar ekan, bu holatning qanchalik go'zal va diqqatga sazovor ekanligini ko'zlarining qorachiqklarini xuddi tomoshoga chiqqanday ifodalash orqali isbotlaydi. Vaholanki, sayrga chiqish insonga xos xususiyatdir.

Ko'zlari bir g'amza birla vahshi ko'nglim qilsa sayd,

Furqatiy, yolg'on emas, gar Chindin ohu kelturur. (B.37)

Mazkur baytda esa lirik qahramon yuragi go'yo ov qilgani chiqish istagida ekanligi, ko'zlar esa mohir ovchi timsolida bayon etiladi. Umuman olganda, Furqat g'azallarida inson tana a'zolarini jonlantirish orqali o'ziga xos badiiy tasvir yaratishga erishilgan.

Shoir g'azallarida fitonimlar bilan bog'liq jonlantirishlarni quyidagi hollarda kuzatishimiz mumkin:

Furqat tabiat, ayniqsa, bahor tasvirining mahoratli kuychisi sifatida ham tan olingan. U bahor faslining dilbar qiyofasini o'z g'azallarida badiiy tasvir vositalari, xususan, tashxis san'ati orqali ta'sirchan ifodalab beradi:

Emdi jonparvar nasim bo'lg'och, gul uzra andalib afg'onidin,

G'unchalar kuldiyu, yuz ochdi guli seroblar. (B.51)

Misralardagi *g'unchalar* so'zi *kuldi* fe'lga birikib, insonga xos *kulish* harakati bevosita jonsiz narsaga, o'simlik nomiga ko'chirilishi bilan jonlantirish yuz beryapti. Bunda nasimning jonni erkalashi, g'unchalarning kulgusi, gullarning yuz ochishi tashxis an'anaviy namunasi bo'lsa-da, go'zal ifoda kasb etadi.

Gul yaqosin pora aylab, g'uncha bag'rin qon qilib,

TILSHUNOSLIK

Sayri bog' aylarga nogah guluzorim kelsalar. (B.32)

Bunda gulga oshiq yorning nogahon bog' ichra sayrga kelishi gul-u g'unchalarning qattiq hayajonga soladi va ularning biri titroqdan yoqa yirtishsa, biri qon yutadi. Ko'ringanidek, har ikki holat ham insonga xosdir.

Keyingi baytda yorning tik qomati, qaddi bo'yini ko'rgan sarvning joniga o't tushadi:

Sarvni jonig'a o't soldi o'zin aylab faroz,

Ollah-ollah, oni qaydog' qomati mavzuni bor? (-B.34)

Furqat g'azallarida o'ziga xos jonlantirishlar ham uchraydiki, ular badiiy matnning ifodaviyligini sezilarli darajada oshiradi, shoirning badiiy maqsadini yorqinroq ifoda etishga xizmat qiladi. Masalan,

Tug'madi davron onosi husn aro bir sen kabi,

Nodiri asru vahidi dahr farzandi rashid. (-B.29)

bayti buning yorqin dalilidir. Baytda "tug'madi davron onosi" deyilganda, hayot va vaqt kabi mavhumiy tushunchalarning semantik xususiyati, yaralish va yaratish mohiyatiga ishora qilinmoqda. Shoir "Fasli navbahor o'ldi..." (-B.39) deb boshlanuvchi g'azalida tabiatning barcha unsurlarini mahorat bilan "tiriltiradi", ya'ni tashxis san'ati asosidagi lisoniy birliklarni o'rinli qo'llab, tirik manzara yaratishga intiladi.

Nastarin yuvib yuzni, yosuman tuzib o'zni,

Nargis ochibon ko'zni intizori yoronlar.

Nastarin, nargis so'zlari bilan insonga xos harakatni ifodalovchi *yuz yuvmoq, ko'z ochmoq* birikmalari o'zaro munosabatga kirishib, go'yo nastarin xuddi odamlarday yuzini yuvsa, nargis ko'zlarini ochadi.

Keyingi baytda esa qumri-yu bulbullar kishilar kabi ohu fig'on chekadilar: "Sarvu gul uza doim tortar ohu afg'onlar" kabi.

Bulbul o'qug'och yig'lab subhidam xazon faslin,

G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar.

Shoir g'unchaning qizarishini "qon yutish" bilan qiyoslab, jonlantiradi. Kishilarning ko'k kiyishi salbiy bahoda ifodalansa-da, sunbulning "ko'k kiyishi"ga ijobiy baho yuklab, quyidagicha chiroyli tashxis qo'llaydi:

Kechtilar vafo ahli qolmayin tutub, savsan,

Kiydi ko'k, qilib sunbul zulfini parishonlar.

"Shoir she'rning go'zalligini, ta'sirchanligini oshirish uchun ajoyib badiiy vositalardan foydalanadi. U dastlab go'zal jonlantirish yaratadi. Bu jonlantirish she'rga badiiy latofat, musiqiylik bag'ishlaydi. She'r misralaridagi "sabzalar", "nastaran", "nargis", "xurram", "yuvib yuzni", "ochibon ko'zni intizori yoronlar" singari so'z va birikmalar orqali ko'kalamzor va gullar jonlantiriladi" [7]. Shuningdek, g'azalda biyobonlarni titrashi, tog'larning larza chekishi, o't-o'lanlarning erkinlikka chiqishi kabi go'zal tashxislar ifodalanganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, zoonimlar bilan bog'liq tashxislar ham shoir ijodida ko'p uchraydi: *lol andalibu qumri, bulbul qulingiz, ohu ko'z yoshi* kabi. Masalan,

Ko'rganda qomatingiz bo'lg'ay hijil sanovbar,

Tovus jilvasidin raftoringiz chiroyli

baytida sanobarning hijil bo'lishi, tovus jilva qilishi orqali insoniy xususiyatlar aks etib, jonlantirish san'ati namoyon bo'lyapti.

Tabiatdagi narsa va jismlarga xuddi tirikday munosabatda bo'lish ham jonlantirishning bir ko'rinishidir. Furqat g'azallarida buning go'zal namunalari mavjud: *Tun ichida kulbama yuzlansang, gul, beniqob* kabi. Yoki

Sen jafog'a moyil etding yorimi desam, falak,

Dedi: mendin ko'rmakim, zolimlig' o'z yoringdadur.

Baytda shoir falakni so'roqqa tutib, uni ayblaydi. Falak esa tilga kirib, uning tortayotgan jabru jafosida zolim yorning o'zi aybdorligini aytadi. Bu orqali shoirning badiiy maqsadi yanada teran ifoda topishiga erishilgan.

XULOSA

Umuman olganda, shoir o'z g'azallarida tabiat, yor, g'urbat mavzulari tavsifida go'zal timsollar va mukammal badiiy tasvir vositalaridan o'rinli foydalanadi. Uning g'azallarida

jonlantirishning individual namunalari uchraydi. Jonlantirishlar Furqat ijodi badiiy matnning ifodaviyligi, ta'sirchanligi va jozibadorligi ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur poetik vosita ijodkor tilining lug'aviy boyligi va so'z qo'llash mahoratini belgilashda alohida ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. -Б. 38. (Lapasov J. Literary text and linguistic analysis.)
2. Қурбонова М., Йўлдошев М. Матн тилшунослиги. –Тошкент: Университет, 2014. –Б.68. (Kurbanova M., Yoldoshev M. Text linguistics.)
3. Бобоев Т. Шеър илми таълими. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –Б.212. (Boboev T. Poetry education.)
4. Бобоев Т., Бобоева З. Бадий санъатлар. –Тошкент, 2000. –Б.11. (Boboev T., Boboeva Z. Fine arts.)
5. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийят малоҳати. –Тошкент: Шарқ, 1999. –Б.40. (Hojjahmedov A. The merit of classical artistry.)
6. Фурқат. Муҳаббат йўлида. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. (Furqat. On the road to love.)
7. <https://jarida.uz/maqola/179>